



New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EISSN 2181-2187

1 (87) 2026

Сопредседатели редакционной коллегии:

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:
М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
Л.М. АБДУЛЛАЕВА
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
М.А. АБДУЛЛАЕВА
Х.А. АБДУМАДЖИДОВ
Б.З. АБДУСАМАТОВ
У.О. АБИДОВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
С.М. АХМЕДОВА
Т.А. АСКАРОВ
М.А. АРТИКОВА
Д.Т. АШУРОВА
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.А. ДЖАЛИЛОВ
Н.Н. ЗОЛотова
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВ
А.С. ИЛЪЯСОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
А.М. МАННАНОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
М.Р. МИРЗОЕВА
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Ф.С. ОРИПОВ
Б.Т. РАХИМОВ
Х.А. РАСУЛОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОЕВ
С.А. ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОВЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Ш.Т. САЛИМОВ
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
Б.Б. ХАСАНОВ
Д.А. ХАСАНОВА
Б.З. ХАМДАМОВ
Э.Б. ХАККУЛОВ
Г.С. ХОДЖИЕВА
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
Д.О. ИВАНОВ (Россия)
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
С.Н. ГУСЕЙНОВА (Азербайджан)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ NEW DAY IN MEDICINE

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал
Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал*

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

1 (87)

www.bsmi.uz
https://newdaymedicine.com
E: ndmuz@mail.ru
Тел: +99890 8061882

2026 январь

**BACHADON LEYOMIOMASI BILAN BOG'LIQ HOMILADORLIK: KLINIK KECHISH
VA AKUSHERLIK XAVFLARINING BAHOLANISHI**

Haydarova N.B. <https://orcid.org/0009-0001-8039-0082>

e-mail: nigora_haydarova@bsmi.uz

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti, O'zbekiston, Buxoro sh.

A. Navoiy kochasi 1 Tel: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ **Rezyume**

Maqsad: bachadon leyomiomasi aniqlangan homilador ayollarda erta va kech akusherlik asoratlari oldindan bashoratlashda immunologik markerlarning diagnostik ahamiyatini baholashdan iborat.

Materiallar va usullar: Tadqiqot davomida Buxoro shahar tug'ruq kompleksi ginekologiya bo'limida bachadon leyomiomasi tashxisi bilan kuzatuv va davolanishda bo'lgan 38 nafar homilador ayol kompleks tibbiy tekshiruvdan o'tkazildi. Tadqiqot ishtirokchilari anamnestik ma'lumotlar, klinik va funksional ko'rsatkichlar hamda molekulyar-genetik usullar asosida tekshirildi.

Natijalar: O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, nazorat guruhidagi ayollarda qon zardobidagi IgA ning o'rtacha ko'rsatkichi $1,85 \pm 0,12$ g/l ni tashkil etdi bo'lib, bu qiymat me'yorning quyi ($1,46$ g/l) va yuqori ($2,22$ g/l) chegaralari oralig'ida bo'ldi. Bachadon leyomiomasi mavjud homilador ayollarda esa qon zardobidagi IgA darajasi nazorat guruhiga nisbatan $1,62$ baravarga yuqori ekanligi aniqlandi ($p < 0,05$). Shuningdek, bemorlarda IgA ning o'rtacha konsentratsiyasi me'yorning yuqori chegarasidan $1,35$ baravar oshgani kuzatildi ($p < 0,05$).

Xulosa: Tadqiqot natijalariga ko'ra, leyomiomali homilador ayollarda immunologik markerlarni o'rganish va baholash kasallikning kechishini aniqlash hamda akusherlik asoratlari erta prognozlashda muhim diagnostik usul hisoblanadi. Immunologik monitoring homiladorlik jarayonini baholash bilan bir qatorda, individual yondashuv asosida profilaktik va davolash choralarini samarali rejalashtirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: miomatoz tugun, immun sistema, akusherlik asoratlari, immunologic monitoring

**БЕРЕМЕННОСТЬ, АССОЦИИРОВАННАЯ С ЛЕЙОМИОМОЙ МАТКИ:
КЛИНИЧЕСКОЕ ТЕЧЕНИЕ И ОЦЕНКА АКУШЕРСКИХ РИСКОВ**

Хайдарова Н.Б. <https://orcid.org/0009-0001-8039-0082>

e-mail: nigora_haydarova@bsmi.uz

Бухарский государственный медицинский институт имени Абу Али ибн Сины, Узбекистан,

г. Бухара, ул. А. Навои. 1 Тел: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ **Резюме**

Цель исследования: оценка диагностической значимости иммунологических маркеров для прогнозирования ранних и поздних акушерских осложнений у беременных женщин с лейомиомой матки.

Материалы и методы. В ходе исследования в гинекологическом отделении Бухарского городского родильного комплекса были обследованы 38 беременных женщин с диагностированной лейомиомой матки, находившихся под наблюдением и лечением. Все пациентки прошли комплексное обследование, включающее анализ анамнестических данных, клинико-функциональные и молекулярно-генетические методы исследования.

Результаты: результаты исследования показали, что средний уровень IgA в сыворотке крови женщин контрольной группы составил $1,85 \pm 0,12$ г/л, что соответствовало диапазону референсных значений (от $1,46$ до $2,22$ г/л). У беременных с лейомиомой матки

уровень IgA в сыворотке крови был в 1,62 раза выше по сравнению с контрольной группой ($p < 0,05$). Кроме того, средняя концентрация IgA у пациенток превышала верхнюю границу нормы в 1,35 раза ($p < 0,05$).

Заключение: полученные данные свидетельствуют о том, что изучение и анализ иммунологических маркеров у беременных с лейомиомой матки являются эффективным методом оценки течения заболевания и раннего прогнозирования акушерских осложнений. Иммунологический мониторинг позволяет не только объективно оценить особенности течения беременности, но и планировать профилактические и лечебные мероприятия с учетом индивидуального подхода.

Ключевые слова: миоматозный узел, иммунная система, акушерские осложнения, иммунологический мониторинг

PREGNANCY ASSOCIATED WITH UTERINE LEIOMYOMA: CLINICAL COURSE AND ASSESSMENT OF OBSTETRIC RISKS

Khaydarova N.B. <https://orcid.org/0009-0001-8039-0082>

e-mail: nigora_haydarova@bsmi.uz

Bukhara State Medical Institute named after Abu Ali ibn Sina, Uzbekistan, Bukhara, st. A. Navoi. 1

Tel: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ Resume

Objective To evaluate the diagnostic significance of immunological markers in predicting early and late obstetric complications in pregnant women with uterine leiomyoma.

Materials and Methods: the study was conducted at the gynecology department of the Bukhara City Maternity Complex. A total of 38 pregnant women diagnosed with uterine leiomyoma and receiving observation and treatment were comprehensively examined. All participants underwent assessment of anamnestic data, clinical and functional parameters, as well as molecular-genetic investigations.

Results: the results demonstrated that the mean serum IgA level in the control group was 1.85 ± 0.12 g/L, which was within the reference range (1.46–2.22 g/L). In pregnant women with uterine leiomyoma, serum IgA levels were found to be 1.62 times higher compared to the control group ($p < 0.05$). Additionally, the mean IgA concentration in patients exceeded the upper limit of the normal range by 1.35 times ($p < 0.05$).

Conclusion: according to the findings, the assessment of immunological markers in pregnant women with uterine leiomyoma is an effective method for evaluating disease progression and early prediction of obstetric complications. Immunological monitoring not only provides insight into the course of pregnancy but also enables individualized planning of preventive and therapeutic measures.

Keywords: myomatous nodule, immune system, obstetric complications, immunological monitoring

Dolzarbilik

Bachadon leyomiomasi (BM) ayollar reproduktiv tizimida eng ko'p uchraydigan yaxshi sifatli o'smalardan biri hisoblanadi. Turli tadqiqotlar ma'lumotlariga ko'ra, reproduktiv yoshdagi ayollar orasida mazkur patologiyani tarqalish darajasi taxminan 38–52% ni tashkil etadi, shulardan qariyb 30–35% holatlarda kasallik klinik jihatdan yaqqol simptomlar bilan namoyon bo'ladi [1–4].

Bachadon miomalari turli irqiy guruhlar o'rtasida turlicha tarqalishga ega bo'lib, ular qora tanli ayollarda eng yuqori, Osiyo irqi vakillarida esa eng past ko'rsatkichlarda uchraydi. Kavkaz va afroamerikalik ayollardan tashqari boshqa irqiy guruhlar bo'yicha epidemiologik ma'lumotlar cheklangan.[12]

Kasallikning dastlabki bosqichlarida, miomatoz tugunlar kichik hajmda va soni cheklangan bo'lganida, bachadon miomasi ko'pincha simptomsiz kechadi. Shu bilan birga, miomasi mavjud ayollarning katta qismida hayot sifatiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadigan klinik belgilari kuzatiladi [2,3]. Eng ko'p uchraydigan shikoyatlar miomatoz tugunlar o'sishi bilan bog'liq og'riq sindromi, umumiy

holsizlik, tez charchash, apatiya, hayz qon ketishlarining kuchayishi (meno- va metroragiya) hamda surunkali anemiya hisoblanadi. Bundan tashqari, disporeuniya, doimiy psixosotsional zo'riqish, shuningdek, reproduktiv funksiyaning buzilishi yoki jarrohlik aralashuvlarga nisbatan qo'rquv holatlari ham tez-tez uchraydi.

Kasallik rivojlanish jarayonida patologik o'zgarishlarning shakllanishiga gormonal omillar (promotorlar) va biologik faol moddalar-o'sish omillari (effektor mexanizmlar) sezilarli ta'sir ko'rsatadi [5,8]. Bachadon miomasining patogenezi ko'p omilli bo'lib, uning asosida irsiy moyillik, gormonal disbalans, immun tizimidagi o'zgarishlar hamda to'qimalar arxitekturasining buzilishi yotadi. Ushbu omillar o'zaro bog'liq holda kasallikning rivojlanishi va klinik manzarasini belgilaydi.

Hozirgi vaqtda bachadon miomasi patogenezi o'rganishda ma'lum yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, ushbu kasallik ginekologiya amaliyotida hanuzgacha jarrohlik aralashuvlarning eng asosiy sabablaridan biri bo'lib qolmoqda. Ayni paytda, kasallikning klinik kechishi, morfologik xususiyatlari va endokrin mexanizmlari keng o'rganilgan [6,10]. Shu bilan birga, so'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar immun tizimi, xususan, humoral immun javob va o'sish omillarining bachadon miomasi rivojlanishida muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatmoqda [5,7].

Zamonaviy ilmiy ma'lumotlarga ko'ra, immunologik mexanizmlar miomani rivojlanishi va uning asoratlari shakllanishida katta rol o'ynaydi. Maxsus immunologik markerlarni aniqlash orqali miomatoz tugunlarning o'sish sur'atini va ehtimoliy asoratlar xavfini erta bosqichda baholash mumkin [4,8]. Shuningdek, humoral immun tizimi faoliyatidagi o'zgarishlar nafaqat o'smali jarayonlarda, balki autoimmun va destruktiv holatlarning shakllanishida ham ishtirok etishi isbotlangan.

O'tkir infeksiyalar jarayonlarda immun javob tez va samarali shakllansa, o'smali kasalliklarda immun tizimi normal va patologik hujayralar o'rtasidagi antigen farqlarining yetarli darajada ifodalanmaganligiga duch keladi. Bunday farqlar, odatda, o'smanning kechki bosqichlarida, hujayralar fenotipik xususiyatlarini o'zgartira boshlaganda namoyon bo'ladi [7,9,11].

Tadqiqot maqsadi: bachadon miomasi bilan og'rikan bemor ayollarda humoral immunitet ko'rsatkichlarini baholash hamda patologik jarayonning immunologik-patogenetik mexanizmlarini aniqlash.

Materiallar va usullar

Buxoro shahridagi tug'ruq kompleksi ginekologiya bo'limida bachadon miomasi tashxisi qo'yilgan 38 nafar bemor tekshiruvdan o'tkazildi. Tekshirgan ayollarning o'rtacha yoshi $49,6 \pm 4,3$ yilni tashkil etdi. Ultratuvush tekshiruvi natijalariga ko'ra, bemorlarning 61%ida yakka miomatoz tugun, 39%ida esa ko'p sonli tugunlar aniqlandi. Bachadon hajmi 55% holatlarda 4–5 haftalik, 45% holatlarda esa 6–8 haftalik homiladorlikka mos keldi.

Bemorlarning 59%i klinik jihatdan sezilarli shikoyatlar bildirmagan, 25%i og'riqli hayz ko'rishni, 16%i esa uzoq davom etuvchi va yaqqol og'riq sindromini qayd etgan.

Nazorat guruhi sifatida yoshi klinik guruhga mos keluvchi, ichki jinsiy a'zolari o'smalari bo'lmagan 28 nafar sog'lom ayol tanlab olindi. Ularda immunoglobulin A (IgA) darajasi o'rganildi.

Humoral immun tizimi faoliligini baholashda aylanuvchi immun komplekslari (AIK) muhim diagnostik ko'rsatkich sifatida qabul qilindi [12].

Qon zardobida IgA miqdori radial immunodiffuziya usulida aniqlandi. AIK darajasi esa polietilenglikol ishtirokida nefelometriya va fotokolorimetriya (KPK-2M) usullari yordamida baholandi.

Statistik tahlil St'yudentning t-testi va korrelyatsion tahlil asosida amalga oshirildi. Natijalar $p < 0,05$ da ishonchli deb hisoblandi. Normativ qiymatlar JSST tavsiyalariga muvofiq, o'rtacha ko'rsatkichdan ± 1 sigma asosida aniqlandi.

Tahlillar: nazorat guruhida IgA ning o'rtacha qiymati $1,78 \pm 0,14$ g/l ni tashkil etdi va bu me'yoriy diapazon ($1,40–2,25$ g/l) doirasida edi. Bachadon miomasi bo'lgan bemorlarda esa IgA darajasi nazorat guruhiga nisbatan taxminan 1,6 marta yuqori ekanligi aniqlandi ($p < 0,05$). Bemorlarda IgA ning o'rtacha qiymati normaning yuqori chegarasidan 1,3 marta ortiq bo'ldi.

Tahlil natijasida miomasi bo'lgan bemorlarning 24%ida IgA darajasi me'yorda, 76%ida esa me'yordan yuqori ekanligi qayd etildi. IgA ko'rsatkichi past bo'lgan holatlar aniqlanmadi.

Nazorat guruhida AIK ning o'rtacha konsentratsiyasi $90,4 \pm 7,9$ shartli birlikni tashkil etdi. Miomali bemorlarda esa ushbu ko'rsatkich taxminan 1,4 marta oshgani kuzatildi ($p < 0,05$). Bemorlarning 13%ida AIK darajasi me'yorda, qolgan 87%ida esa yuqori bo'lgan.

Ushbu natijalar bachadonning yaxshi sifatli o'smalarida humoral immun tizimining faollashganligini tasdiqlaydi.

Ma'lumki, ko'plab patologik holatlarda hujayra membranalar shikastlanadi va bu erkin radikallar ta'siri bilan bog'liq bo'ladi [8]. Membrana butunligining buzilishi yadroviy komponentlarning qon oqimiga chiqishiga sabab bo'ladi va natijada DNK fragmentlari ko'payadi. Ushbu fragmentlar bilan immun tizimining o'zaro ta'siri autoantidenalar hosil bo'lishiga olib keladi, ularning miqdori hujayralar shikastlanish darajasi bilan bog'liq [6,9].

Xulosa

Olingan natijalar bachadon miomasi bo'lgan ayollarda humoral immunitetning sezilarli darajada faollashganini ko'rsatdi. IgA va aylanuvchi immun komplekslarining yuqori ko'rsatkichlari patologik jarayonda immun mexanizmlarning muhim o'rin tutishini tasdiqlaydi.

Immunologik markerlarni baholash bachadon miomasi rivojlanishini va ehtimoliy ginekologik asoratlarni erta prognoz qilishda muhim ahamiyatga ega. Aniqlanishicha, bachadon miomasi, ayniqsa homiladorlik davrida, nafaqat anatomo-fiziologik, balki immunologik omillar bilan ham uzviy bog'liq.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Narzullaeva, N. S., Musakhodzhaeva, D. A., Abdurakhmanov, M. M., Ikhtiyarova, G. A. (2019). Cytokine dynamics as a result of phyto flavanoid exposure in women with uterine myoma. Russian Journal Of Immunology, 2019;22(2-1):435-437. doi: 10.31857/S102872210006922-9
2. Narzullaeva N.S., Musakhodzhaeva D.a., abdurakhmanov M.M., Ikhtiyarova G.a. Cytokine dynamics as a result of phyto-flavanoid exposure in women with uterine myoma // Russian Journal of Immunology. 2019;22(2-1):435-437. doi: 10.31857/S102872210006922-9
3. Narzullaeva N.S. (2021). Gynecological and somatic history of women with uterine myoma according to retrospective analysis. Акуш., гинекол., перинатол 2021;(2):86.
4. Narzullaeva, N. S., Ixtiyarova, G. a., & Sh, B. a. (2022). Clinical and Immunological aspects of Leiomyoma with Endometritis. Central asian Journal of Medical and Natural Science 2022;3(4):301-305.
5. Narzullaeva, N. S. (2022). Innovative methods of diagnosis and treatment in women with infertility associated with uterine fibroids. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 2022; 3313-3321 pp.
6. Song H., Lu D., Navaratnam K. et al. aromatase inhibitors for uterine fibroids // Cochrane Database Syst Rev. 2013;10:CD009505.
7. Абрамова С.В., Миронова И.Н., Курганова О.Ю. и др. Клинико-эпидемиологические аспекты миомы матки (обзор литературы) // Бюллетень науки и практики. 2018;4(4):69-74.
8. Агабабян Л.Р., Хамзаев Ф.И. Метаболические показатели у женщин с миомой матки на фоне избыточной массы тела // В сборнике: Достижения вузовской науки 2018. Сборник статей II Международного научно-исследовательского конкурса. –М., 2018; 224-227 стр.
9. Агафонова Д.Д. Эффективность эмболизации маточных артерий в лечении миомы матки // В сборнике: Материалы 69-й межвузовской (IV Всероссийской) итоговой научной студенческой конференции с международным участием, посвященной 70-летию Победы в Великой Отечественной войне. –М., 2015; 3-4 стр.
10. Бабаджанова Г.С., Тухтамишева Н.О. Современный взгляд на диагностику и лечение миомы матки у женщин репродуктивного возраста // Биология и интегративная медицина. 2017;2:64-79.
11. Балашова Е.О., Супрунук В.В. Эндоскопическое лечение миомы матки // Студенческий форум. 2018;7(28):16-18.
12. Sparic R, Mirkovic L, Malvasi A, Tinelli A. Epidemiology of uterine myomas: a review Int J Fertil Steril. 2016;9(4):424-435.

Qabul qilingan sana 20.12.2025